

## MAKTABGACHA TA'LIMDA TA'LIM TEXNOLOGIYASINING VARIATIVLIGI

**Bolibekova Maftuna Shermuxammadovna**  
Sirdaryo pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'limda ta'lim texnologiyasining variativligi ta'lim trayektoriyasini individuallashtirishning variativligi haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, trayektoriya, innavotsion, individual, o'quv dasturi.

---

Jahon miqiyosida maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanib bormoqda. Nafaqat jahonda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning innovatsion modellarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, pedagog-tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning intellektual, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim-tarbiyada uning mazmuni, usullari va vositalarini innovatsion rivojlantirish maqsadida variativ yondashuv asosida dasturlar, kreativ texnologiyalarni ishlab chiqish pedagog-tarbiyachilarning ijodkorlik va texnologik kompetentligini takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni variativ yondashuvlar asosida o'qitish, undagi ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmogini kengaytirish va unda bolalarnig har tomonlama – intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'limga to'laroq qamrab olinishiga erishish, pedagog va mutaxassislarning malakaviy darajasini yuksaltirish kabi muhim vazifalar belgilangan

“Ta'lim texnologiyalarining variativligi” - bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga qaratilgan pedagogik texnologiyalar majmui bo'lib, unda tahsil oluvchiga nafaqat tayyor bilimlar, balki uning ehtiyoji, ishtiyoqi, mayllari, qobiliyat va layoqatidan kelib chiqib, bilimlarni mustaqil egallashga imkoniyat yaratuvchi muqobil tanlash va foydalanish tizimi tushuniladi.

“Ta'lim traektoriyasini individuallashtirishning variativligi” deganda, bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan hamda uning potentsialini maksimal darajada ochib berishga qaratilgan ta'lim yo'l xaritasi (marshrut) tushuniladi. Individual ta'lim marshruti bu bolaning o'quv faoliyatini amalga oshiruvchi vaqtinchalik ketma-ketlikdir. Individuallik bu tarbiyachi va bola o'rtasidagi aloqa “birga-bir” degani emas. Bu bolani individualligini hisobga olgan va uning imkoniyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan o'quv materiallari, o'qish texnologiyalari va usullari degani.

. “Individual ta'lim traektoriyasi” moslashuvchan xarakterga ega hamda tarbiyachi va bola o'rtasidagi alokalarni boshqacha tarzda shakllantiradi.

Tarbiyachi.

O'quv dasturi

Bolaning ijodkorlik qobilyatlarini ochishga yo'naltirilgan o'quv materiallari, ta'lim va tarbiya usullari, texnologiyalari.

Individual ta'lim trayektoriyasi.

Bola.

Variativ yondashuv asosida maktabgacha ta'limni takomillashtirishning umumiy modeli ijtimoiy-pedagogik tizimning asosiy komponenti sifatida ota-onalar va bolalarning turli ehtiyojlariga asoslangan ta'lim talablarini qondirishga qaratilgan.

Variativ yondashuv asosida maktabgacha ta'limni takomillashtirishning umumiy modelining asosiy komponentlari bu jamiyat, davlat, ota-ona va bolaning talablari, variativ yondashuvning asosiy tamoyilari, ta'lim-tarbiya maqsadi, maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilish, variativ yondashuviga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni, maktabgacha ta'lim muassasasini

bitirish va uzluksiz ravishda bolalarni bilish jarayonini va ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish dinamikasini baholovchi pedagogik diagnostika tizimi.

Uzluksiz ravishda bolalarni bilish jarayonini va ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish dinamikasini baholovchi pedagogik diagnostika tizimi boshlang'ich, oraliq va yakuniy natijadorlikni baholashni o'z ichiga olgan bo'lib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga ilk qadam qo'yandagi shaxsiy qobiliyatlarini, qiziqishlarini aniqlash (boshlang'ich diagnostika);

bola rivojlanishining ijtimoiy vaziyat xususiyatlarini tahlil qilish (oraliq diagnostika);

maktabga tayyorlash jarayonida bolaning rivojlanishini monitoring qilish (oraliq diagnostika);

katta maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish xususiyatlarini, uning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash (yakuniy diagnostika).

Boshlang'ich diagnostikaning asosiy maksadi maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilingan bolalarning bilish jarayonini va ijodiy rivojlanishini aniqlashdan iborat.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan variativlikning eng asosiy tamoyillari kelib chiqadi, bular differentsialashtirish va individullashtirish. Maktabgacha ta'lim tizimining variativligini differentsiallashtirish va individuallashtirishning psixologo-pedagogik asoslari quyidagicha:

bilim darajasi, o'quvligi;

umumiy aql qobiliyati;

o'zlashtirish tezligi, imkoniyatlari;

psixofiziologik jihatlarini;

aqliy qobiliyat faoliyatining individual jihatlarini.

Xulosa qilib aytganda variativ yondashuv asosida maktabgacha ta'limni takomillashtirishning umumiy modeli ijtimoiy-pedagogik tizimning asosiy komponenti sifatida ota-onalar va bolalarning turli ehtiyojlariga asoslangan ta'lim talablarini qondirishga qaratilgan.

Shuni e'tirof etish kerakki, zamon tendentsiyalari sifatida qabul qilinayotgan maktabgacha ta'limda variativlik yondashuvining metodologik, didaktik va texnologik jihatlarining mavjud ta'lim tizimiga tatbiq etilishi ko'plab rivojlangan davlatlar tomonidan sohani yanada takomillashtirish yo'li sifatida qabul qilinmoqda.

Variativ ta'lim dasturlari asosida tashkil qilingan ta'lim - maktabgacha ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichidir. U maktabgacha ta'lim tizimi iste'molchilariga (ota-onalar, bolalar) ta'lim dasturlari variantlari va alohida ta'lim xizmatlari turlarini ularning maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlov asosida taqdim etish xususiyati bilan karakterlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 2014. yil,
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –T., 2020 yil, 20-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrdagi 181 (6875)-soni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son Qarori
5. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. Mualliflar: I.B.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.- Toshkent, 2018.-59 S
6. "Ilm yo'li" variativ dastur 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash.-Toshkent 2019
7. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan. fals. dok. (PhD) – T., 2019.